



MADANIY TAFOVUTLARNING TARJIMA JARAYONIDAGI O'RNI VA TA'SIRI

Muallif: Muxammadiyeva Umida Faxriddin qizi¹

Affilyatsiya: Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Ikkinch bosqichi tayanch doktoranti¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.1520261>

ANNOTATSIYA

Maqolada lingvistik va madaniy tafovutlarning tarjima jarayonidagi o'rni, madaniy-belgilangan tushunchalar tarjimasidagi muammolar, madaniyatlararo muloqotdagi tafovutlarning ta'siri tizimli tahlil qilinadi. Badiiy, ilmiy va kinematografik matnlar asosida madaniy moslik, semantik yo'qotish va tarjimonning vositachilik roli yoritiladi.

Kalit so'zlar: tarjima, madaniyat, madaniy tafovutlar, tafovut, lingvistika, muloqot, konnotatsiya, adaptatsiya.

KIRISH

Globallashuv sharoitida madaniyatlararo muloqotning kuchayib borayotgani turli til va madaniyat vakillari o'rtasida samarali aloqa o'rnatishni dolzarb masalaga aylantirmoqda. Ayniqsa, tarjima jarayonida til birliklarini to'g'ri aks ettirish bilan birga, madaniy tafovutlarni hisobga olish ham muhim ahamiyatga ega. Har bir madaniyat o'ziga xos dunyoqarash, qadriyatlar tizimi va kommunikatsion uslublarga ega bo'lib, bu jihatlar tarjimada lingvistik va semantik muammolarni yuzaga keltirishi mumkin [1, b. 22-24]. Shu sababli tarjimonlardan nafaqat til bilimlari, balki madaniy kompetensiya ham talab etiladi. Tarjima faqat matnni bir tildan ikkinchisiga o'girish emas, balki ikki madaniyat o'rtasidagi ko'priq vazifasini bajaradigan jarayon bo'lib, uning muvaffaqiyati ko'p jihatdan madaniy tafovutlarni to'g'ri talqin qilishga bog'liq [3, b. 45-48]. Ushbu maqolada madaniy tafovutlarning tarjima jarayonidagi o'rni va ularning mazmunni anglashdagi ta'siri tahlil qilinadi.

Lingvistik tafovutlarning tarjima jarayonidagi ta'siri

Lingvistik tafovut - bu tillar o'rtasidagi grammatik, leksik, fonetik yoki semantik farqlarning jamlanmasidir. Ushbu tafovutlar har bir tilning tuzilmasi, madaniyati va ijtimoiy hayoti bilan chambarchas bog'liq bo'lib, tarjima jarayonida mazmunni to'g'ri yetkazishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi [13, b. 35]. Har bir til o'zining tarixiy taraqqiyoti, xalqining dunyoqarashi va milliy tafakkuri asosida shakllanadi. Shu bois lingvistik tafovutlar tarjimon uchun nafaqat grammatik muammo, balki madaniy-ma'naviy masalaga aylanadi.

Tilshunos G'. Salomov ta'kidlaganidek, lingvistik tafovutlar ikki yo'nalishda namoyon bo'ladi: statik tafovutlar - tillarning strukturaviy xususiyatlariiga oid farqlar; va dinamik tafovutlar - nutqdagi foydalanish, kontekstual vaziyat va pragmatik

yondashuvlardagi farqlar [15, b. 30-34]. Masalan, ingliz tilining analitik tabiatи grammatik ma'nolarni yordamchi so'zlar orqali ifodalashga asoslangan bo'lsa, o'zbek tilining agglutinativ tuzilmasi esa ma'nolarni qo'shimchalar orqali ifodalaydi. Bu ikki xil model tarjimada mos kelmaydigan sintaktik yoki semantik qatlamlarni yuzaga keltiradi.

Zamonlar tizimidagi farqlar bunga yaqqol misoldir. Ingliz tilida vaqtini belgilash uchun aniq grammatik shakllar mavjud: I read a book (odatdagi holat), I will read a book (keljak), I have been reading a book (harakat davomiyligi). O'zbek tilida esa, masalan, *Men kitob o'qiyman* jumlesi kontekstga qarab ham hozirgi, ham keljak zamonni anglatishi mumkin. Bu esa tarjimada vaqtini to'g'ri uzatish uchun qo'shimcha ma'lumot va pragmatik tafakkurni talab qiladi [12, b. 58-69].

Tarjima jarayonida fonetik va morfologik tafovutlar ham katta ahamiyatga ega. Ingliz tilida urg'u va intonatsiya ko'pincha gap ma'nosini belgilovchi vosita bo'lsa, o'zbek tilida bu rolni asosan qo'shimchalar bajaradi. Misol uchun, ingliz tilidagi "He is reading a book" jumlasida fe'l tarkibidagi "is reading" shakli yordamchi so'zlar orqali zamon va harakatni bildiradi. O'zbek tilida esa bu ma'no *u kitob o'qiyapti* shaklida, ya'ni affikslar orqali ifodalanadi: "-yap" - davomiylik, "-ti" – shaxs [8, b. 25-28].

So'z yasashdagи tafovutlar ham tarjima uchun muhim. G.N. Rahmonova ta'kidlaganidek, ingliz tilida yangi so'zlar asosan prefiks va suffikslar orqali yaratilsa, o'zbek tilida bu jarayon ko'pincha so'z birikmalari yoki sintaktik vositalar bilan amalga oshiriladi [14, b. 45-47]. Masalan, ingliz tilidagi "unemployment" so'zi o'zbek tilida *ishsizlik* deb tarjima qilinsa ham, bu holatda har ikkala tilda so'z yasashning printsiplari farq qiladi, bu esa tarjimonda semantik tafakkurni talab etadi.

Shuningdek, I.N. Ochilboyeva ingliz va o'zbek tillaridagi etiketa leksikalarini solishtirib, madaniyatga xos so'z ishlatish uslublarini tahlil qilgan. Ingliz tilida please, thank you kabi iboralar har bir ijtimoiy vaziyatda deyarli majburiy sanalsa, o'zbek tilida bunday iboralar kontekstga, shaxslararo munosabatlarga, yosh va maqomga qarab qo'llaniladi [11, b. 30-42]. Bu farq tarjimada ijtimoiy vaziyatni noto'g'ri talqin qilishga olib kelishi mumkin.

O'zbek va ingliz tillaridagi so'z tartibi ham mazmunni uzatishda muhim o'r'in tutadi. Ingliz tilida qat'iy so'z tartibi mavjud: "The cat chased the dog" va "The dog chased the cat" butunlay turli ma'nolarni anglatadi. O'zbek tilida esa *Mushuk itni quvdi* va *Itni mushuk quvdi* jumlalari deyarli bir xil ma'noni beradi, chunki grammatik bog'lanish ko'proq qo'shimchalar orqali belgilanadi. Bu tafovut tarjimada so'zlarning joylashuvi va sintaktik moslikka alohida e'tibor qaratishni talab etadi.

Pragmatik tafovutlar ham tarjimaning uslubiga ta'sir qiladi. Ingliz tili odatda qisqa, lo'nda, rasmiy ifodalarni afzal ko'rgan bo'lsa, o'zbek tilida murakkabroq, izohli va holatga moslashgan jumlalar keng qo'llaniladi [7, b. 45]. Masalan, ingliz tilidagi "Please confirm receipt" iborasi o'zbek tilida "Iltimos, xatni olganingizni tasdiqlang" yoki *Xatni olgan bo'lsangiz, xabar bering* tarzida kengaytirilgan shaklda ifodalanadi. Bu til odatlaridagi farqlar ham tarjima uslubini belgilaydi.

Madaniy-belgilangan tushunchalarning tarjimasida uchraydigan muammolar

Madaniyat har bir xalqning tafakkuri, qadriyatlari, urf-odatlari va dunyoqarashini aks ettiruvchi murakkab ijtimoiy hodisadir. Shu bois, madaniy-belgilangan tushunchalarni tarjima qilish madaniyatlar o'rtasidagi nozik tafovutlarni chuqur anglashni talab qiladi. Har bir madaniyat o'ziga xos til birliklari, metaforalar va

kommunikativ uslublarga ega bo'lib, ularni boshqa tilda izchil va to'laqonli ifodalash tarjimon oldiga ko'plab muammolarni qo'yadi.

Turli janr va uslublarga oid matnlar tarjimasida madaniy tafovutlar o'ziga xos shakllarda namoyon bo'ladi. Badiiy adabiyotda estetik mazmun, madaniy metaforalar, ramziy timsollar tarjimada semantik yo'qotishlarga olib kelishi mumkin. Masalan, A. Navoiyning "dilxastalik" iborasi ingliz tilida ko'pincha "heartache" yoki "sorrow" tarzida tarjima qilinsa-da [6, b. 12-14], uning majoziy va ruhiy chuqurligi to'liq aks ettirilmaydi. Xuddi shuningdek, "to'ra", "andishaning bandasi", "og'ir tabiatlik" kabi birliklar ham ingliz tilida ekvivalent topishda madaniy kontekstni izohli tarzda yetkazishni talab qiladi [9, b. 56-58; 10, b. 101-103]. Shunday hollarda tarjima nafaqat til o'ziga xosligini, balki ijtimoiy-madaniy qatlamlari ham hisobga olgan bo'lishi lozim.

Ilmiy va huquqiy matnlar tarjimasida esa madaniyatga bog'liq terminlar, atamalar kontekstga qarab turlicha ma'no kasb etadi. Masalan, "zaryad" so'zining ilmiy kontekstdagi (electric charge) va kundalik hayotdagi (to'lov, narx) ma'nolari farqli bo'lib, bu holat tarjimada aniqlik va izchillikni ta'minlashni talab etadi. Huquqiy matnlarda esa aniq va neytral tarjima talab qilinadi, bunda ikki madaniyatdagi huquqiy tizimlarning tafovutlari inobatga olinmasa, noto'g'ri talqinlar yuzaga keladi.

Maqollar, idiomalar va hazil (jumladan, so'z o'yinlari) tarjimasida madaniy tafovutlar yanada keskin seziladi. Masalan, *Suv ichgan quduqqa tosh otma* maqoli ingliz tilida "Don't bite the hand that feeds you" tarzida beriladi. Har ikkisi bir xil axloqiy g'oyani ifodalasa-da, ramziy obrazlar butunlay turlicha. Ingliz tilidagi "When pigs fly" iborasi o'zbekcha *Tuyaning dumi yerga tekkanda* shaklida tarjima qilinadi, bu ham madaniy asosli obrazlar orqali ifodalanadigan muhim tafovutdir [14, b. 45-57]. Hazillar tarjimasida, ayniqsa stand-up janrida, madaniy stereotiplar, milliy xususiyatlar yoki ijtimoiy mavzular bilan bog'liq istehzolar boshqa madaniyat vakillarida tushunmovchilik yoki madaniy zarba (culture shock) keltirib chiqarishi mumkin.

Kinematografik asarlar, ayniqsa tarixiy va ijtimoiy mavzularga oid filmlar tarjimasida ham madaniy tafovutlar keskin namoyon bo'ladi. "Faridaning ikki ming qo'shig'i", "Kelinlar qo'zg'oloni", "Osmondagi bolalar" kabi filmlar ingliz tiliga tarjima qilinganida ularning ramziy qatlamlari, diniy va milliy qadriyatları to'liq aks ettirilmagan. Xuddi shuningdek, xorijiy filmlarni o'zbek tiliga tarjima qilishda ham madaniyatlararo tafovutlarni anglash va ularni kontekstual izohlar orqali to'ldirish talab qilinadi. Masalan, "skiff", "salao", "Big Brother", "homecoming party", "gender reveal" kabi tushunchalar tarjimada bevosita emas, balki izohli va moslashtirilgan yondashuv orqali yetkazilishi kerak.

Misol uchun, "Faridaning ikki ming qo'shig'i" filmining premyerasi 2020-yil 17-oktabrda Adelaida kinofestivalida bo'lib o'tib, 2020-yilgi Pusan xalqaro kinofestivalida namoyish etilgan. Filmda 1920-yillar Turkistonidagi bir oila hayoti orqali o'sha davr siyosiy voqealari tasvirlanadi. Film ingliz tiliga subtitrlar bilan tarjima qilingan bo'lsa-da, ayrim madaniy va semantik mazmunning to'liq aks ettirilmaganligi xalqaro tomoshabinlar uchun qiyinchilik tug'dirgan.

Masalan, *Yurt tuprog'i ota kabi muqaddas* iborasi ingliz tilida "The soil of the homeland is as sacred as a father" deb tarjima qilingan. Grammatik jihatdan to'g'ri bo'lsa-da, ingliz madaniyatida "soil" atamasi ko'pincha faqat qishloq xo'jaligi yoki geografik obyekt sifatida tushuniladi. O'zbek madaniyatidagi tuproqning muqaddaslik

ramzi - tarix, ota-bobolar xotirasi, milliylik va vatanparvarlik tushunchalari bilan bog'langan. Bu esa mazkur tarjimada madaniy konnotatsiyani sezilarli darajada yo'qotgan.

Bundan tashqari, filmda ishlatalgan tarixiy atamalar, jumladan "bosmachilar" so'zi ingliz tilidagi subtitrlarda bevosita tarjima qilinmagan yoki izohsiz qoldirilgan. Bu esa xorijiy tomoshabinlar uchun filmning siyosiy kontekstini to'liq tushunishda to'siq bo'lib xizmat qilgan.

Shuningdek, mashhur ingliz filmi *There Will Be Blood* o'zbek tiliga *Neft* deb tarjima qilingan. Aslida, film nomidagi *There Will Be Blood* iborasi faqat iqtisodiy raqobat emas, balki insoniy shafqatsizlik, zo'ravonlik va ma'naviy halokatga ishora qiladi [16]. O'zbekcha "Neft" deb tarjima qilinishi esa filmning muhim ijtimoiy-falsafiy qatlarni soyada qoldiradi. Bu yerda tarjima matnining yuzaki semantik jihatlarini saqlab qolgan holda, madaniy va estetik konnotatsiyalarni yo'qotgani ko'zga tashlanadi. Tarjimada asl nomga yaqinroq yondashuv, masalan, "*Qon to'kiladi*" shaklida berilishi, tomoshabinda filmning ichki dramatizmini chuqurroq tushunishga yordam bergan bo'lardi.

Tarjima jarayonida marosimlar va urf-odatlarga oid birliklar ham madaniy tafovutlarning yorqin namunalaridir. "Sunnat to'yi", "fotiha marosimi", "challa" kabi tushunchalar ingliz madaniyatida bevosita muqobilga ega emas. Shunga o'xshash tarzda, ingliz tilidagi "baby shower", "reception", "homecoming" kabi atamalarni o'zbek tiliga tarjima qilishda ham soddalik emas, balki madaniyatlararo izchillik muhim omil bo'lib qoladi.

Xulosa qilib aytganda, madaniy-belgilangan tushunchalarni tarjima qilishda yuzaga keladigan muammolar, asosan, semantik yo'qotish, noto'g'ri talqin, madaniy noaniqlik va kommunikativ uzilishlar bilan bog'liq. Tarjimon bu muammolarni bartaraf etish uchun nafaqat til, balki madaniyat bo'yicha ham chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur hollarda esa izohli, kontekstual va adaptiv tarjima uslublarini qo'llay olishi zarur. Shundagina madaniyatlararo muloqotda tarjimaning haqiqiy mazmuni saqlanadi.

Madaniy tafovutlarning tarjima natijasiga ta'siri va muloqotdagi o'rni

Tarjima jarayoni nafaqat tillararo almashinuv, balki madaniyatlararo muloqotning muhim shaklidir. Shu bois, tarjima sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri bu - madaniy tafovutlardir. Tarjimon til birliklarini ko'chirish bilan birga, har ikki madaniyat o'tasida positachilik qiladi [5, b. 245]. U nafaqat leksik va grammatik moslikni, balki ijtimoiy qadriyatlar, tarixiy xotira, axloqiy me'yorlar va mentalitetga xos ko'rinishlarni ham inobatga olishi zarur. Aks holda, tarjima yuzaki ko'rinishda to'g'ri bo'lsa ham, kommunikativ maqsadga xizmat qilmasligi mumkin.

Madaniy tafovutlarning tarjima natijasiga ta'siri ko'p hollarda semantik yo'qotishlar, noto'g'ri konnotatsiyalar yoki madaniy moslikning buzilishi orqali namoyon bo'ladi. Masalan, badiiy adabiyot tarjimasida o'zbek tilidagi "or", "ko'ngil", "andisha" kabi tushunchalar ingliz tilida bevosita muqobilga ega emas. Bu so'zlar madaniyatga xos hissiy, axloqiy va ijtimoiy qatlarni o'zida mujassam etgan. Ularni noto'g'ri yoki soddalashtirilgan shaklda tarjima qilish asarning mazmuniy boyligini yo'qotish xavfini tug'diradi. Xuddi shunday, ingliz tilidagi "privacy", "individualism", "liberty" kabi tushunchalar o'zbek madaniyatida boshqa kontekstda talqin qilinadi [4, b. 50-52].

Tarjimada madaniy tafovutlar faqat lug'aviy darajada emas, balki kommunikativ va pragmatik jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Jumladan, ingliz tilida keng

qo'llaniladigan "please", "sorry", "excuse me" kabi iboralar muloqotning muhim etik unsurlari bo'lsa, o'zbek tilida ular kontekstga qarab qo'llanadi va haddan tashqari ishlatalishi sun'iy yoki ishonchsiz taassurot qoldirishi mumkin [2, b. 15]. Bu kabi tafovutlar tarjimada muomala uslubini noaniq aks ettiradi va muloqot samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Madaniyatlararo muloqotda madaniy tafovutlarning to'g'ri talqini vositasida tarjima jarayoni nafaqat til o'zgarishini, balki madaniyatlar o'rtasida anglashuvni ta'minlaydi. Tarjimon ushbu muloqotni to'g'ri tashkil etish uchun har ikki madaniyat vakillarining tafakkuri, qadriyatlari va muloqot uslublarini chuqur tushunishi lozim. Aks holda, madaniy tafovut noto'g'ri talqinga, stereotiplarga yoki hatto madaniy tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin.

Bu ayniqsa ommaviy axborot vositalari, diplomatik nutq, reklama, kino tarjimasi va xalqaro hujjatlar tarjimasida yaqqol seziladi. Masalan, bir xalqda ijobiy bo'lgan obraz yoki ibora, boshqa madaniyatda salbiy konnotatsiyaga ega bo'lishi mumkin. Shu bois tarjimon faqat matn ustida emas, balki uning orqasidagi madaniy reallikni anglash ustida ham ishlashi zarur [3, b. 45-48]. Bu jihatdan tarjimon shunchaki til bilimdoni emas, balki madaniyatlararo muloqot vositachisi sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, madaniy tafovutlar tarjima natijasining sifati, aniqligi va muloqotdagi samaradorligini bevosita belgilovchi omildir. Tarjimon bu tafovutlarni chuqur tahlil qilgan holda, matnning mohiyatini saqlagan holda uni boshqa madaniyat vakiliga tushunarli va qabul qilinadigan shaklda yetkazishi lozim. Faqat shundagina tarjima chinakam madaniyatlararo ko'prik vazifasini bajaradi.

XULOSA

Madaniy tafovutlar tarjima jarayonining barcha bosqichlarida muhim rol o'ynaydi. Til - bu shunchaki aloqa vositasi emas, balki har bir xalqning tarixiy xotirasi, ijtimoiy ong, mentalitet va estetik didini aks ettiruvchi madaniy tizimdir. Tarjimon esa bu madaniy qatlamlarni boshqa tilga o'tkazuvchi vositachi bo'lib, u nafaqat grammatik moslikni, balki madaniy moslashuvni ham ta'minlashi zarur. Ayniqsa, madaniyatga xos tushunchalar, ramzlar, obrazlar va muloqot uslublari tarjimada noto'g'ri talqin qilinsa, bu nafaqat matnning semantik yo'qotilishiga, balki muloqotning buzilishiga ham olib keladi. Shu bois madaniy tafovutlarning tarjima natijasiga ta'siri va muloqotdagi o'rni chuqur tahlil etilishi, tarjimaning samaradorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etilishi lozim. Ushbu tadqiqot quyidagi asosiy xulosalarni ilgari suradi:

- Madaniy tafovutlar tarjima jarayonining markaziy omillaridan biri bo'lib, ular grammatik yoki leksik darajadangina iborat emas, balki kontekstual, ijtimoiy va estetik qatlamlarda namoyon bo'ladi.
- Tarjimon har ikki madaniyatning qadriyatlari, kommunikativ odatlari va ramziy tizimlarini chuqur anglab, matnga ijodiy va moslashuvchan yondashishi zarur.
- Badiiy, ilmiy, huquqiy, jurnalistik va kinematografik matnlarda madaniy konnotatsiyalarni izchil yetkazish tarjimaning mazmuniy aniqligi va ta'sirchanligini belgilaydi.
- Tarjima nafaqat lingvistik jarayon, balki madaniyatlararo ko'prik bo'lib xizmat qiladigan muloqot shakli sifatida qaralishi kerak.

Madaniyatlararo muloqot samaradorligi tarjimonning madaniy tafovutlarni aniqlash, izohlash va moslashtirish qobiliyatiga bevosita bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdullayeva R.A. Ingliz va o'zbek tillaridagi predikatsiya tizimining qiyosiy tahlili. - Tilshunoslik tadqiqotlari, 2018. - P. 22-34.
2. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. - London: Routledge, 2018. - P. 15.
3. G'afurov G., Mo'minov O., Omonov M. Tarjima nazariyasi: tadqiqot obyekti va tahlil usullari. - Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti, 2012. - B. 45-48.
4. Isomiddinov Z. O'zbek tarjimashunosligi: nazariy va amaliy masalalar. - Toshkent: Fan va Texnologiya Nashriyoti, 2019. - B. 50-52.
5. Levy J. The Art of Translation. - Amsterdam: Van Gorcum, 1967. - P. 245.
6. Mamurov K. Ghazals by Alisher Navoi: Translations from Uzbek into English. - Toshkent: Jahon Adabiyoti Jurnali, 2018. - P. 12-14.
7. Munday J. Introducing Translation Studies: Theories and Applications. - London: Routledge, 2022. - P. 45.
8. Musayev Q. Tarjima nazariyasi. - Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti, 2003. - B. 25-28.
9. Navoij A. C'azallar devoni. - Toshkent: Sharq nashriyoti, 2010. - P. 56-58.
10. Navoij A. Xamsa. - Toshkent: Fan, 2017. - B. 101-103.
11. Ochilboyeva I.N. Ingliz va o'zbek tillaridagi etiket leksemalarining qiyosiy tahlili. - Xalqaro tilshunoslik va tarjimashunoslik, 2019. - P. 30-42.
12. Ormonova M. Neologizmlarning til rivojiga ta'siri (ingliz va o'zbek tillari misolida). - Jahon tilshunosligi, 2021. - P. 58-69.
13. Pym A. Exploring Translation Theories. - London: Routledge, 2014. - P. 35.
14. Rahmonova G.N. Ingliz va o'zbek tili so'z birikmalari tizimida kechadigan derivatsion jarayonlarning qiyosiy tahlili. - O'zbek tili va adabiyoti jurnal, 2020. - P. 45-57.
15. Salomov G'. Tarjima nazariyasi asoslari. - Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti, 1990. - B. 30-34.
16. Anderson P.T. There Will Be Blood. Directed by P.T. Anderson, Paramount Vantage, 2007. - Film.